

# Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida "navoiyazot" aj uchun muhim bitim imzolandi

// 16.06.2026


<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/toshkent-xalqaro-investitsiya-forumi-doirasida-navoiyazot-aj>



**Xabar berganimizdek, bugun Xalqaro investisiya forumi o'z ishini boshladi.** Mamlakatimiz investitsiyaviy salohiyatini xalqaro maydonda keng namoyish etish, xorijiy investorlar bilan yangi kelishuvlarga erishish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan mazkur nufuzli tadbir doirasida **"Navoiyazot" AJ uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan uch tomonlama bitim imzolandi.**



**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrdaqi PQ-459-son va 2024 yil 7 fevraldaqi PQ-63-son qarorlariga muvofiq "Navoiyazot" AJ negizida "Havoni taqsimlash uskunasini qurish" investisiya loyihasini amalga oshirish belgilangan.**



Mazkur loyiha korxonaning mavjud ishlab chiqarish quvvatlari hamda kelgusida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan qo'shma korxonalarni azot va kislorod bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladi.



**Loyihani sifatli va qisqa muddatlarda amalga oshirish maqsadida Forum doirasida "Navoiyazot" AJ, "Linde Holdings Netherlands No. 3 B.V." hamda "Sinoma Energy Conservation International Investment Co., Ltd" kompaniyalari o'rtasida uch tomonlama bitim imzolandi.**



Imzolash marosimida "O'zkimyosanoat" AJ va "Navoiyazot" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosarlari, "Sinoma Energy Conservation International Investment" kompaniyasi raisi va vakillari, "Linde Holdings Netherlands No. 3 B.V." klaster rahbari va boshqa mutaxassislar ishtirok etishdi.



Mazkur loyihaning amalga oshirilishi natijasida **"Navoiyazot"** AJning ishlab chiqarish tarmoqlari yanada kengaytirilib, mavjud va istiqboldagi ishlab chiqarish quvvatlarini azot hamda kislorod bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyati yaratiladi.



